

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov fan to'g'risida



“Respublika fani qudratli intellektual salohiyatini yaratgan. U hayotimizning ko'pgina sohalarida amalda qo'llanmoqda. Vatanimizning milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tabiiy zahiralarning chegaralanganligi tufayli korxonalar hamda umuman davlat faoliyatining muvaffaqiyati hozir ko'p jihatdan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalar qanchalik keng joriy etilayotganligi, kadrlarning kasb tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi.

Tarixan O'zbekiston Respublikasi shakllangan intellektual salohiyat XXI asr bo'sag'asida o'zining rivojlanish darajasi jihatidan, innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan hozirgi vaqta jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgari ketgan. Ko'p jihatdan esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan qolishmaydi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda.

Uzoq o'tmishdayoq o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoda mashhur. Bular buyuk matematik va astronomlar al-Xorazmiy, Farg'oniy, Javhariy, Marvaziy, Ulug'bek; faylasuf va ilohiyotchi-huquqshunoslar Forobiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Marg'inoniy, Nasafiy; qomusiy olimlar Beruniy, Ibn Sino; tilshunos-shoirlar Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Zamaxshariy, Alisher Navoiy; tarixchilar Bobur Mirzo, Abulg'azi Bahodirxon, Ogahiy va boshqa ko'pgina ulug' zotlardir.

Olimlarimiz eng yaxshi an'analarni o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarining ishlarini munosib davom ettirmoqdalar. Ilmiy ziyolilarimizning muhim fazilati hamma vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishdan iborat. Ular yangi, kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga dadil kirishib, o'z mehnatlari bilan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga, innovatsiya salohiyatini mustahkamlashga hissa qo'shmoqdalar”. (O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – Toshkent, 1998. 163-bet.)

“Lekin shuni ochiq aytish kerakki, ilm-u fan, adabiyot, madaniyat va san'at, ta'lim-tarbiya, ma'naviyatimizni yanada yuksaltirish yo'lida o'zining mehnati va iste'dodini bag'ishlagan zahmatkash insonlarni yetarli darajada qo'llab-quvvatlash va qadrlash borasida hali ko'p ish qilinishi kerak”. (O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga nomzod Islom Karimovning saylovchilar bilan uchrashuvlari /

Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – Toshkent, 2008, 141-bet.)

“O‘zbekiston o‘zining milliy Fanlar akademiyasiga ega bo‘lib, uning tarkibida ulkan ilmiy-texnik salohiyatga ega bo‘lgan 43 ta akademik institut muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Tabiiy va aniq fanlarning yadro fizikasi, issiqlik fizikasi, astrofizika, geliomaterialshunoslik, biologiya, mikrobiologiya, kimyo va tabiiy birikmalar kimyosi, seysmologiya yo‘nalishlarida va boshqa ko‘plab sohalarda istiqbolli tadqiqotlar olib borilmoqda”. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma‘ruza, 2007-yil 30-avgust / Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – Toshkent, 2008, 32-bet.)

“Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo‘nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Fan jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch, vosita bo‘lmog‘i lozim”. (Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q / Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – Toshkent, 1999. 150-bet.)